

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995 yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

5-2022

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

B.Sh.Shermuhammadov, A.A.Ergashev

Alohiba ta'limga ehtiyoji bor bo'lgan o'quvchilarga ta'lim- tarbiya berishni takomillashtirish omillari 7

J.E.Tursunov

O'quvchilarning kreativlik qobiliyatlarini shakllantirishda fanlararo bog'lanish..... 12

FALSAFA, SIYOSAT

N.S.Normatov, Z.S.Jumanov

Bemorlarning huquqlarini amalga oshirish bilan bog'liq tibbiy xizmatlarda raqamli texnologiyalar va sun'iy intellektdan foydalanish istiqbollari..... 18

M. B.Xudaybergenova

Oliy ta'lim muassasalari talabalari orasida mutolaa madaniyatini shakllantirish: joriy muammolar va yechimlar tadqiqoti 26

ТАРИХ

M.H.Isamiddinov, N. Sh.Kambarov

Fag'onaning ilk bronza davri jamoalari 30

O.V.Mahmudov

«O'rta asr Yevropa tarjima markazlari» tushunchasi va uning ilmiy iste'moliga oid..... 36

N.Sh.Kambarov, I.S.Xakimova, A.R.Poziljonov

Jaliltepa yodgorligining Farg'ona vodiysi qadimgi davri madaniyatlaridagi o'rni 45

D.A.Aytimova

Qoraqalpog'istonda dastlabki kutubxonalarning shakllanishi va rivojlanish tarixidan 49

B.M.Abdullayev, N.Sh.Kambarov, A.R.Poziljonov

Andijon viloyatidagi Xonobod-1 yodgorligida ikkinchi mavsum dala tadqiqot natijalari 54

Sh.T.Quldashev

“Tarixi shavqiy” asari: topilishi va ilmiy tahlil 66

Q.Sulaymonov, D.Madaminov

Yangi bilimlarni o'zlashtirishda tez o'qishning ahamiyati 72

Z.N.Xatamova

Qo'qon xonligi moliyaviy tizimiga elchilik masalalarining ta'siri: Xudoyorxonzodaning “Anjum at-tavorix” asari asosida 76

I.M.Burxonov

Qo'qon xonligi tarixini o'rganishda Asomiddin O'rinoev ilmiy tadqiqotlarini o'rganilganlik darajasi 84

A.N.Maxmudova

R.X.Sulaymonov tadqiqotlarida qadimgi Sug'd moddiy madaniyati muammolari 88

A.Sharofiddinov, D.Q.Mukarramov

Toshkent yeparxiyasiga boshchilik qilgan ruhoniylar faoliyati tahlili 91

D.A.Ismoilova

Turkiston o'lkasida kon-metallurgi Hya tarixidan (XIX asr oxiri - XX asr boshlari). 96

E.L.Gasanov

Ganja shahrini ko'chish tarixining tadqiqi haqida 101

ADABIYOTSHUNOSLIK

A.G.Sabirdinov

Mirtemirning she'riy mahorati xususida 106

Z.A.Rahimov

Tarixiy romanda syujet va xarakter 110

F.Isomiddinov

Irim-sirimlar 115

D.M.Xoshimova

«Boburnoma»dagи shaxs va xarakter munosabatini ifodalovchi qiyosiy vositalarning tarjimada berilishi 120

FAG'ONANING ILK BRONZA DAVRI JAMOALARI**ОБЩЕСТВА ФЕРГАНЫ В ЭПОХУ РАННЕЙ БРОНЗЫ****EARLY BRONZE AGE COMMUNITIES OF FERGHANA**

Isamiddinov Muxamad Hasanovich¹, Kambarov Nasibillo Shukurilloyevich²

¹**Isamiddinov Muxamad Hasanovich**

– Farg'ona davlat universiteti Jahon tarixi kafedrasи professori.

²**Kambarov Nasibillo Shukurilloyevich**

– Farg'ona davlat universiteti Jahon tarixi kafedrasи o'qituvchisi.

Annotatsiya

Maqolada Farg'ona vodiysida birinchi marta eneolit va ilk bronza davri manzilgohi arxeologo-antropologik usullarni qo'llab topilganligi va uning tarqalish areali, dastlabki dehqonchilik madaniyati va u bilan bog'liq tadqiqotlar tahlili, "Toshtumor" bilan bog'liq yangi tadqiqot natijalari to'g'risida fikr yuritiladi. Shuningdek, topilgan yangi manzilgohning quyi qatlamlarining tuproqshunoslikda qo'llaniladigan yangi usullar orqali tuproqlarning morfologik tarkibi aniqlandi.

Аннотация

В статье рассказывается об обнаружении городища энеолита и ранней бронзы в Ферганской долине археолого-антропологическими методами и анализе ареала его распространения, раннеземледельческой культуры и связанных с ней исследованиях, новых результатах исследований, связанных с «Таштумором». Также определена морфологическая структура почв по современным методам полевых исследований.

Abstract

The article tells about the discovery of the settlement of the Eneolithic and Early Bronze Age in the Fergana Valley by archaeological and anthropological methods and the analysis of the area of its distribution, early agricultural culture and related research, new research results related to "Tashtumor". The morphological structure of soils was also determined using modern methods of field research.

Kalit so'zlar: eneolit, ilk bronza, tarozitosh, sarazm madaniyati, Messopotamiya, janubi-g'arbiy Eron, Elam, ilon kulti, an'analar.

Ключевые слова: энеолит, ранняя бронза, каменные гири, саразмская культура, Мессопотамия, юго-западный Иран, Элам, культ змеи, традиции.

Key words: Eneolithic, Early Bronze Age, stone weights, Sarazmian culture, Mesopotamia, southwestern Iran, Elam, snake cult, traditions.

KIRISH. Farg'ona vodiysi atrofi tog'lar bilan o'rالgan katta vodiyo bo'lganligi, uning baland tog'laridagi muzliklardan doimo zilol suvlarni oqizdirib keladigan soy va daryolarning ko'pligi tufayli bu hududda eng qadimgi davrlardan tekislik yerlarni dehqon jamoalari va tog'oldi va dasht hududlarni chorvadorlar tomonidan egallangan. Shuning uchun ham vodiyni arxeologik jihatdan o'rganishda mutaxassislar, eng avvalo, o'rganilajak davrning arxeologik obidalarini topib, uni o'rganishga harakat qiladilar. Bunday arxeologik obidalar ilk temir davridan rivojlangan o'rta asrlargacha bo'lgan davrlarga oid yodgorliklar saqlanib qolgan va ularning aksariyat qismi o'rganilgan. Insoniyat tarixidagi, shu jumladan, Farg'ona vodiysi tarixidagi eng katta "bo'shliq" bo'lib, bu eneolit va ilk bronza davri arxeologik yodgorliklarining "yo'qligi"dir. Go'yoki, bu davrda vodiyya odamlar "yashamagan"day.

Shuning uchun ham, biz ushbu maqolaning asosiy maqsadi eneolit va ilk bronza davrida yashagan ibtidoiy odamlarning manzilgohlarini topib, ularning turmush tarzi, urf-odatlari va jamoalarining hayotini o'rganishdan iboratdir. Maqolaning vazifalariga, eng avvalo, arxeologik obidalarining "yo'qligi" sabablarini o'rganishimiz, buning uchun shu davr bo'yicha yozilgan arxeologik, paleobotanik, paleozoologik va geologik adabiyotlarni ko'rib chiqish, eneolit va ilk bronza davri yodgorliklarini yo'qligining asosiy sababarini aynan shu bo'shliqni sababi nimadaligini aniqlash kerak bo'ladi.

ADABIYOTLAR TAHЛИLI VA METODLARI.

Farg'onaning eng qadimgi dehqonchilik madaniyati to'g'risida so'z ketguday bo'lsa, deyarli hamma arxeologlar "Chust madaniyati"ni shakllanishi masalasini va uning boshqa hududlarga

TARIX

tarqashini gapirishadi. Ayniqsa, Qadimgi Farg'onaning bronza va ilk temir davri yodgorliklarning eng qadimgi davri to'g'risida gap ketanda M.Ye.Massonni Katta Farg'ona kanalini qazish davrida topgan asori-atiqalarini sharhlagani, va hatto undan ancha ilgariroq, Aflatun xazinasiga bag'ishlangan alohida maqola yozib, o'z fikrini bildirgani to'g'risidagi ma'lumotlar bor[8, 52-54]. Farg'ona vodiysining eneolit va ilk bronza davri madaniyatlarini ilk bor davrlashtirishga harakat qilgan olimlardan yana biri B.A.Latinin edi [7, 109-170]. Farg'onaning bronza davri tarixi va madaniyatini o'rganishda va uni ilk bor davrlashtirish ishlarini ko'targan olimlardan biri A.N.Bernshtam bo'lib, hatto chust, andronova madaniyatlar bo'yicha o'z fikrlarini bildirgan olim edi[3, 346]. Farg'ona shunos arxeologlardan yana bire Yu.A.Zadneprovskiy deyarli butun umrini so'nggi bronza va ilk temir davriga oid yodgorliklarni topib, o'rganib, uni tahlil qilish masalalarini ko'targan. U birinchi marta Farg'onaning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotini davrlashtirgan. Uning Farg'ona qadimgi davrlarini davrlashtirish bo'yicha qilgan bu ishlari bugungi kunga qadar ham o'z ahamiyatini yo'qtogani yo'q [10, 29-45]. Shu bilan birga, Chust madaniyatini o'rganish bo'yicha bir necha yillar davomida Buonomozor yodgorligida arxeologik izlanishlar olib borgan arxeolog olimlardan biri V.I.Sprishevskiy bo'lib, uning qazishmalari hozirgi kunga qadar ham "chust madaniyati" to'g'risida to'liq ma'lumot beradigan, bu madaniyatni o'rganayotgan odamga to'liq tasavvur beradigan yagona yodgorlikdir [5, 17].

Shimoliy Farg'ona hududlarida Yu.G.Chulanov ham katta ishlarni olib borib, Chust (Buonomozortepa), Dalvarzin (Oyim qishlog'ida), Tergovchi (To'raqo'rg'on tumani), Qoraqo'rg'on (Ko'kserekoy daryo vohasi), Yoztepa (Chortoqsoy vohasi) yodgorliklarda qazishma ishlarini o'tkazdi-ki, natijada bu yodgorliklarni deyarli hammasi "epoxa kulturi lepnoy-raspisnoy keramiki" (qo'lda yasalib, ustidan rangda naqsh solingen idishlar), davriga va madaniyatiga oid ekanligi ma'lum bo'ldi.

Xullas, shimoliy Farg'ona qoradaryo bilan Norin oralig'ida 80 yaqin chust madaniyatiga oid yodgorliklar borligi aniqlangan. Bu yodgorliklarning eng yirigi Dalvarzin yodgorligi bo'lib, hozirgi arxeologlar unga "vodiyyagini eng qadimgi shahar" maqomini bermoqdalar. Ikkinci yirik aholi punkti Chust (Buonomozor) yodgorligi bo'lib, bu yodgorlikni endigina shaharlashish jarayoni boshlangan yodgorliklardan biri ekanligini aytishadi. Yana bir yirik yodgorliklardan biri Ashqoltepa bo'lsa, ikkinchisi O'sh turarjoy makonidir[11, 172]. Ayniqsa O'sh turarjoy makoni qatlamlaridan yangi radiokarbon analizlar olindi, natijada chust madaniyatini boshlang'ich davrini xronologiyasi miloddan avvalgi XV asr deb belgilandi.

Shunday qilib, Farg'ona vodiysidagi eng qadimgi dehqonchilik madaniyatining boshlang'ich davri miloddan avvalgi XV asr bo'lsa, uning tugallangan davri VIII asr hisoblanadi. Aslida bu madaniyatning boshlangan va tugallangan davri bo'yicha arxeolog olimlarning ko'plab nuqtayi-nazarlari bo'lsa ham, ammo ularning aksariyat qismi yuqorida biz keltirgan xronologiya atrofida fikr yuritadilar. Shunga qaramay, farg'ona shunos arxeoglarning nuqtayi-nazari bo'yicha, Farg'ona vodiysining eneolit va ilk bronza davriga oid arxeologik obidalarining yerning yuzasiga chiqib turgan qismini yo'qligi, bu hududlarda umuman "aholi yashamagan va shuning uchun ham bu davr yodgorliklari yo'q", degan fikrga olib kelmoqda.

Ammo vodiyyagini arxeologik tadqiqotlar tarixiga nazar soladigan bo'lsak, bu hududdan birin-kechin ko'plab alohida arxeologik topilmalar topilganki, ularni yasalgan davri hech qachon "chust madaniyati" davri bilan davrlanmaydi, balki ancha qadimgi davrlar bilan davrlanadi. Shunday topilmalardan biri "So'x toshumori" bo'lib, u 1893-1894 yillari topilgan. Bu topilmada ikkita bir-biriga chirmashgan va hamla qilib turgan holatdagi ilonlar tasvirlangan [6, 17-27].

Bu topilma to'g'risida juda ko'p olimlar o'zlarini turli fikrlarini bildirib yozishdi. Ammo, ularning hammasida ham bunday toshumorlarning tarqalish hududi, vazifasi, to'g'risida yozgan holda, toshumorlarning keng tarqalgan hududlari Qadimgi Sharq ekanligi to'g'risidagi fikrni bildirganlar. Buning aksicha, Farg'ona vodiysida bunday toshumorlar yasalmaganligi va bunday buyumlar (So'x toshumori) o'sha Qadimgi Sharq hududlaridan olib kelingan, degan maqolalar ham chiqqan[12, 54-56]. Ko'pchilik arxeoglarning (ayniqsa g'arb olimlari) nazarida bunday toshdan yasalgan buyumlar "tarozi toshi" vazifasini bajargan. Ammo, biz bu fikrga qo'shilmaymiz, chunki Farg'ona vodiysida keyinggi yillarda topilgan toshumorlarni og'irligini o'chab ko'rganimizda ularning hammasi har xil og'irlilikda chiqdi. Yaqinda chop etilgan K.Abdullayevning kitobida esa bunday toshumorlarning asosiy vazifasi "ko'knor, nasha kabi o'simliklarni ezib, suvini chiqarib, xaoma kabi ichimliklarni tayyorlashda ishlatiladigan buyum sifatida foydalangan bo'lishi kerak", deyiladi[1, 101]. Hamma gap

shundaki, deyarli barcha tadqiqotchilar bu buyumni faqat o'troq dehqon jamoalariga tegishli ekanini va uning tarqalish areali Mesopotamiya va Janubi-g'arbiy Eron hududlari ekanligi to'g'risidagi to'g'ri fikrni aytadilar[4, 52-53]. Shu bilan birga, ilon kulti O'rta Osiyo hududlarida qadimgi davrlardan boshlab keng tarqalgan ilohiy jonzot sifatida qadrlangan va e'zozlangan[2, 13-27].

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Shunday qilib, farg'onashunos arxeologlarning shu paytgacha eneolit va ilk bronza davrini o'rganish borasidagi ishlarini o'rganib chiqqanimizda, ularni bu davr arxeologik yodgorliklarini qidirish bo'yicha olib borgan izlanishlari samara bermaganligiga guvoh bo'ldik. Shuning uchun, biz masalaga arxeologo - antropologik yondashib, ya'ni masalaga kompleks tarzda yondashib, Farg'ona vodiysida ham eneolit va ilk bronza davri materiallari borligini aniqlab, imkon bo'lsa o'sha davr arxeologik obidasini topishga harakat qilamiz.

Yaqin paytlargacha, "Xok xazinasi" va "Aflatun xazinasi" dan boshqa juda qadimgi davrlar bilan davrlanishi mumkin bo'lgan topilmalar Farg'ona vodiysida ma'lum emas edi. Ammo keyingi yillarda birin-ketin naqshsiz "toshtumorlarning" topilishiga guvoh bo'ldik. Dastlab Qorasuv qishlog'ini maktab muzevida qora rangli toshdan juda silliq qilib ishlangan va 32 kg li sportsmenlar ko'taradigan toshga o'xshash qilib yasalgan tosh topildi[9, 179]. Bu "tosh tumor" albatta shu qishloq yaqinidagi qurilgan suv ombori suvga to'ldirilib, keyin suv ekinlarga qo'yib yuborilgandan keyin ochilib qolgan topilma bo'lishi kerak va natijada uni o'quvchilar topib maktab muzeiga topshirishgan.

Keyinroq Andijon va Namangan viloyatlarining muzeylarida ham xuddi shunday toshdan yasalgan buyumlar paydo bo'ldi. Muzey xodimlarining aytishicha, Namangan muzeydagi "toshtumor" Buonomozor (chust yodgorligi) atroflaridan topilgan. Sobiq Ittifoq qulab, o'rnida mustaqil respublikalar tuzilgandan keyin Qirg'izistonning O'sh viloyatining "Suleymantov muzey qo'riqxonasi"da ham 2 ta "toshtumor" borligi ma'lum bo'ldi.

Shunday qilib, yuqorida keltirilgan "toshtumor"lar chust madaniyati yodgorliklarining o'zida uchramaydi. Bunday buyumlar O'rta Osiyoning janubiy hududlarida faqat eneolit va ilk bronza davri yodgorliklarida keng tarqalgan. Hozirda Zarafshon vohasi va Toshkent vohalarida ham bunday buyumlar keng tarqalganligi ma'lum bo'immoqda. Ammo, bu toshdan yasalgan buyumlarning katta qismi arxeologik qazishmalar davrida topilmasdan, ularning katta qismi favqulotdagi holatlar davrida turli odamlar tomonidan topilgan edi. 2021-yildagi topilma ham xuddi yuqoridagi holatlar kabi Andijon davlat universiteti tarix fakultetining studentlaridan biri Paxtaobod tumanining Bekmahalla qishlog'idagi xonardonlarning birida toshdan yasalgan "toshtumor" topilganligini xabarini berdi. Biz tezlik bilan "toshtumor" topilgan joyni borib ko'rib, qachon va qanday holatda "toshtumor" topilganligini so'raganimizda, "bundan 30 yil avval hovlimizning burchak qismida chuqur qaziganimizda 4,5 m chuqurlikdan tosh buyumi topilgan"ligini aytishdi. Biz o'sha xonadondagi 30 yil avval qazilgan chuqurning yonidan shurf qazishga ruxsat olib, ishni boshladik. 4x4 m. hajmdagi shurfning yuqori qatlamlarining 1-1,5 m. qalinlikdagi tuproq o'zining tabiiy-tarixiy jarayonlardagi holatini yo'qotgan, tuproq qatlamlari surilgan, aralash tuproq qatlamlaridan iborat ekanligini ko'rdik. Shuning uchun ham biz bu qatlamlarni olib tashlab chuqurlashganimizda, toza, sariq rangdagi deyarli 3 metr qalinlikdagi bo'z tuproq qatlamlarini ikki yerida o'sha davrga xos bo'lgan tekkis yer sathi va kul qatlamlari saqlanib qolganligini ko'rdik. Shurfda aniqlangan pol bo'ylab kul qatlami bir tekisda tarqalganligidan tashqari, shurfning shimoli-sharqiy qismidagi burchakda kulning to'plangan qismi ham aniqlandi. Ammo, har ikki pol yuzasidan kul qatlamlaridan tashqari biron-bir arxeologik topilma topilmadi. Shuning uchun shurf kesmasining eng yuqori qatlamlaridan quiyi qatlamlarigacha har 5,5 sm chuqurligidan alohida-alohida o'simlik dunyosini o'rganish uchun tuproq namunalarini oldik. Ammo, Xitojlik hamkorlarimiz pandemiya tufayli ikki yildan oshiq vaqtidan buyon bizning yurtimizga kelisha olishmaganligi tufayli bizning bu maqsadimizni amalga oshirish imkoniyati bo'lmadi. Lekin bu ishning erta-kechi yo'q, bu yil bo'lmasa keyingi yillarda biz olgan namunalar Xitoyning eng ilg'or laboratoriyalarda tahlil qilinib obyektiv xulosalarga albatta ega bo'lamiz, degan umiddamiz. Bizning asosiy maqsadimiz shurfning yuza qismidan pastga tomon qatlamma-qatlam o'simlik dunyosini qanday o'zgarib borishini aniqlashdan iborat edi.

TARIX

Tuproqshunoslikda dala tadqiqotlari usuliga ko'ra tuproqlarning morfologik tavsifi¹ :

0-26 sm – bo'z rang, sarg'ish dog'li, o'rta qumoq, zichlangan, o'simlik ildizlari ko'p, keying qatlamgacha o'tish rangi va mexanik tarkibiga ko'ra keskin.

26-57 sm – to'q bo'z rangli, og'ir qumoqli, zichlashgan, kesaksimon strukturaga ega, quruq, ildiz mavjud, tuproq hayvonlari inlari va eksikarti uchraydi, yaralmariga ko'ra ostki qatlamga o'tish zinch va yangi.

57-70 sm – bo'z rang, oqish dog'li, og'ir qumoq, kuchli zichlashgan, kesaksimon strukturali, karbonatli konkretsiyalariga boy, ildiz mavjud, asta-sekin mexanik tarkibiga ega.

70-93 sm – bo'z rang, qizg'ish-qo'ng'ir dog'li, qumloq va yengil qumoqli aralash holda, strukturasiz, kuchsiz zichlangan, hayvon eksiketri yaqqol ko'zga tashlanadi mexanik tarkibi.

93-107 sm – och bo'z rang, qo'ng'ir-malla tovlanadi, qumloq, gileynish belgilari namoyon bo'ladi, kam zichlangan, temir oksidli, ya'ni zang dog'li, keying qatlamga o'tish rangiga ko'ra, daraxt qoldiqlari o'ng devordan ko'plab ko'rindi.

107-115 sm – qo'ng'ir sur tusli, kokimtir tovlanadi, mayda kesakcha strukturali, o'rta qumoq, temir va marganetsli yangi yaralma ko'zga tashlanadi, rangi va mehanik tarkibiga ko'ra.

115-130 sm – bo'z rang, oqish dog'lar, og'ir qumoq, gleylanish belgilari mavjud, qatlam jichligiga ko'ra farqlanadi.

130-142 sm – yuqoridagi qatlamni takrorlaydi, jichligi nisbatan yuqori, sarg'ish gleyli dog'lar mozaika ko'rinishida namoyon bo'ladi.

142-163 sm – yuqori qatlamga o'xshash, yengil va o'rta qumoqli, sarg'ish qo'ng'ir rangli, qizg'ish tovlanadi, lyo'ssimon jinsni eslatadi, marganetsli, yangi yaralmalar ko'p uchraydi, o'simlik ildiz qoldiqlari mavjud.

163-182 sm – namligi yuqori bo'lgan nam-xo'sh, yengil qumoq va quloqli qatlam ham uchraydi, keyingi qatlamdan rangi va mexanik tarkibiga ko'ra farqlanadi.

182-201 sm – rangiga ko'ra qo'ng'ir bo'z rangli, o'rta va og'ir qumoq mexanik tarkibli, nam, jichlangan.

201-225 sm – yuqoridagi qatlamga nisbatan jichroq, sur tusli qo'ng'ir rangda, antropogen qo'shilmasi ta'siri seziladi.

225-248 sm – qo'shilma hisobiga va kul qoldig'i, chala yongan pista ko'mir qoldig'i, kuygan va tandir rangiga o'xshash devorli, mozaika ko'rinishidagi sarg'ish dog'lar qatlamda uchraydi. Ko'milgan gumсли qatlamni yoki ko'l yotqizig'ini, botqoqlanishini eslatadi.

248-285 sm – och bo'z rang, qo'ng'ir tovlanadi, yengil va o'rta qumoq, ba'zan og'ir qumoqqa o'xshaydi, jichlangan, gleylashgan qatlam.

303-315 sm – och bo'z, qo'ng'ir dog'li, o'rta qumoq, strukturasiz, sarg'ish dog'li, qatlam osti yengillashib boradi, keyingi qatlamga o'tish rangi va keskin mexanik tarkibli.

315-325 sm – qo'ng'ir kul rangli tovlanuvchi och bo'z rang, yengil qumoq, qumloqli, jichlangan, yangi yaralmalar ko'zga tashlanmaydi, qatlam osti turli kattalikdagi toshlar terilgan, prolyuvial jinslar hisoblanadi.

1-rasm. Qazishma maydonining qatlamlari



¹ Isag'aliyev Murodjon To'ychiboyevich qazuv maydoni kesmasidagi tuproq qatlamlarining morfologik tavsifini dala tadqiqotlari usuliga keltirdi, Farg'ona davlat universiteti, biologiya fanlari doktori, dotsent.

XULOSA

1. Nima bo'lganda ham, biz Farg'ona vodiysida birinchi marotaba eneolit va ilk bronza davriga oid manzilgohning o'rmini va uning qatlamlarini "torozi tosh" (bizningcha "toshtumor") bilan birga topdik. Bu narsa, ya'ni "torozi toshi" yoki "toshtumor" ning borligini o'zi bu topilgan yodgorlik qatlamlarini eneolit davrining ikkinchi yarmi (mil. il. IV ming yillikning ikkinchi yarmi va III ming yillikning birinchi yarmi) va ilk bronza davri bilan davrlash imkonini beradi.

2. Andijon viloyatining Paxtaobod tumani vodiyning shimoli-sharqiy qismidagi adir zonalariga yaqinligi tufayli qadimgi manzilgohlarning sel suvlari, daryolarning yotqizqlari natijasida barcha eneolit va ilk bronza davri yodgorliklari ko'milib ketgan. Shuning uchun ham arxeologlarda "bu davr yodgorliklari yo'q", degan noto'g'ri tasavvurni hosil bo'lishiga olib kelgan.

3. Yuqoridagi topilma va Zarafshon vohasining yuqori qismida topilgan aynan so'nggi eneolit va ilk bronza davrlariga oid "sarazm madaniyati" bu Markaziy Osiyoning shimoli-sharqiy qismlarida tarqalgan ilk dehqonchilik madaniyati hisoblanadi va undan Toshkent va Farg'ona vodiysiga ham bu dehqon jamoalari tarqalgan.

4. Farg'ona vodiysidagi sarazm madaniyati tipidagi ilk dehqon jamoalarining uzoq yillar davomidagi faoliyati natijasida vujudga kelgan an'analar ta'siri chust madaniyatini vujudga kelishiga olib kelgan.

ADABIYOTLAR

1. Абдуллаев К. Культ хаомы в Центральной Азии. – Самарканд Международный Институт центральноазиатских исследований. 2009. – с. 101
2. Беленицкий А.М., Мешкерис В.А. Змеи-драконы в древнем искусстве Средней Азии//СА. №3, Москва.: Наука, 1986. – с. 13-27.
3. Бернштам А.Н. Историко-археологические очерки Центрального Тянь-Шанья и Памиро-Алая // МИА №26 – Москва – Ленинград. Из-во АН СССР, 1952, - 346 с.
4. Воронец М.Э. Каменное изображение змей из кишлака Сох Ферганской области//КСИИМК. Вып. 61.-Москва.: Из-во АН СССР, 1956. – с.52-53.
5. Спришевский В.И. Чустское поселение (к истории Ферганы в эпоху бронзы). // Автореф. дисс. канд. ист. наук. Ташкент: Фан, 1969. – 17 с.;
6. Кастанье И.А. Культ змей у различных народов и следы его в Туркестане//Протоколы заседаний ТКЛА 1912-1913 годов.- Ташкент.: 1913.- с. 17-27.
7. Латынин Б.А. Работы в районе проектируемой электростанции на р. Нарыне в Фергане (гидроэлектропроект) // Известия ГАИМК. Вып.110. Археологические работы на новостройках. Т. II. – Ленинград: 1935. – с. 120-150; Латынин Б.А. Некоторые итоги работ Ферганской экспедиции 1934 г. // АСГЭ. Вып. 3. – Ленинград: Из-во Гос. Эрмитажа, 1861. – с. 109-170.
8. Массон М.Е. Экспедиция археологического надзора на строительстве Большого Ферганского канала им. И.В.Сталина//КСИИМК. №4. – Москва – Ленинград. Изд-во АН СССР. 1940. – с.52-54.
9. Матбабаев Б.Х., Машрабов З.З. Древний и средневековый Андижан. – Sharq, 2011. С. 179.
10. Заднепровский Ю.А. Древнеземледельческая культура Ферганы. // МИА. № 118. – Москва – Ленинград. Из - во АН СССР. 1962 – 328 с. – 328 с. Заднепровский Ю.А. Городище Эйлатан (к вопросу датировке памятника) // СА. № 3. – Москва: Из – во Наука, 1960. – с. 29-45.
11. Заднепровский Ю.А. Ошское поселение. К истории Ферганы в эпоху поздней бронзы. – Бишкек. Мурас, 1997. – 172 с.
12. Охирги мақолалардан бири: Богомолов Г.И. Сумка богов, амулет или обыкновенная гирья?//Фан ва турмуш. №1-2. 2020. С.54-56.

TARIX



2-rasm. Tuproq qatlaming umumiy ko‘rinishi



3-rasm. Quyi tosh qatlam



4-rasm. Yongan kul qatlami

